

**Использование КПИ для повышения эффективности в цепочках**

**поставок**

**Applying KPIs to increase efficiency in supply chains**

**Xomidov Jo`rabek Abdushukur o`g`li**

*TDIU "Menejment" fakulteti "Logistika" yo`nalishi talabasi*

[jorabekh99@gmail.com](mailto:jorabekh99@gmail.com)

+998-97-999-0299

**Хамидова Журабека Абдушукура угли**

*Студент направления "Логистика" факультета "Менеджмент" ТГЭУ*

[jorabekh99@gmail.com](mailto:jorabekh99@gmail.com)

+998-97-999-0299

**Khomidov Jurabek Abdushukur ugli**

*Student of the "Logistics" direction of the Faculty of Management of TDIU*

[jorabekh99@gmail.com](mailto:jorabekh99@gmail.com)

+998-97-999-0299

**Kalit so'zlar:** ta'minot zanjiri boshqaruvida KPI, ta'minot zanjirini optimallashtirish, ta'minot zanjiri ko'rsatkichlari, logistika samaradorligi, asosiy ishlash ko'rsatkichlari, ta'minot zanjirini yaxshilash, ta'minot zanjiri tahlili.

**Ключевые слова:** KPI в управлении цепочкой поставок, оптимизация цепочки поставок, показатели цепочки поставок, эффективность логистики, ключевые показатели производительности, улучшение цепочки поставок, анализ цепочки поставок.

**Keywords:** KPIs in supply chain management, supply chain optimization, supply chain indicators, logistics efficiency, key performance indicators, supply chain improvement, supply chain analysis.

## **Kirish**

Bugungi globallashgan dunyoda, biznesda muvaffaqiyatga erishishni asosiy omillaridan biri bu ta'minot zanjirini samarali boshqarish (SCM)dir. Ta'minot zanjiri mahsulotlar vaqtida yetib borishi, narxlar nazorat qilinishi va mijozlarni kompaniya xizmatidan mammunligi kabi jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich boshchiligidagi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Bir qancha nutqlar va chiqishlarida, Prezident bir nechta sohalarda samaradorlikni oshirish va texnologik jihatdan yaxshilash kerakligini ta'kidlab o`tdilar, jumladan ta'minot zanjiri va logistika sohasida ham.

Ushbu maqolada qanday qilib KPI (Key performance Indicators; Asosiy Samaradorlik Ko`rsatkichlari) orqali ta'minot zanjirida samaradorlikni yaxshilash va uni hozirgi O`zbekiston davlatining iqtisodiy maqsadlari bilan birlashtirish haqida ma'lumotlar berilgan. Qolaversa, maqola ta'minot zanjirida ishlatilishi mumkin bo`lgan KPI turlari, ularni qay darajada muhimliligi va biznesda muvaffaqiyatga erishishdagi KPI'ning muhim roli kabi mavzularni yoritib beradi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Ilmiy adabiyotlarda ta'minot zanjirida KPI'lardan foydalanish juda ham ko`p marotaba tilga olingan. Tadqiqotlarga ko`ra, KPI'larni korxona va tashkilotlarda to`g`ri qo`llash ularning faoliyatiga aniqroq yondashishga va tezkor qaror qabul qilishga, xarajatlarni kamaytirishga va samaradorligiga juda ham ijobjiy ta'sir o`tkazadi.

Ushbu sohada juda ham ko`plab misol va iqtiboslar keltiradigan olimlardan Kaplan va Norton biznesda moliyaviy va moliyaviy bo`limgan sohalarida foydalansa bo`ladigan KPI konsepsiyasini, Balanced Scorecard (Muvozanatli Ko`rsatkichlar)ni ishlab chiqishgan. Ushbu konsepsiya orqali ta'minot zanjirini samarali boshqarish va nazorat qilish mumkin bo`ladi.

Martin Christopher ham "Logistics and supply chain management" (Logistika va ta'minot zanjirini boshqarish) nomli kitobida juda ham ko`plab kerakli bo`lgan ma'lumotlarni keltirib o`tadi. Ushbu kitobda KPI'lar yordamida ta'minot zanjirini tezkor boshqarish va qanday qilib o`zgaruvchan bozor sharoitlariga tez fursatda moslashish mumkinligini yoritib beradi.

O`zbekistonda ham ta'minot zanjiri va logistikada samaradorlik darajasi muhimliliqi to`g`risida bir qancha hisobotlar va ilmiy ishlarda muhokama qilinmoqda. Misol uchun, B. Qurbonov o`zining ilmiy ishida mahalliy ta'minot zanjirini va logistika tizimida xarajatlarni kamaytirib, samaradorlikni oshirishga e'tibor qaratib, KPI'lar orqali logistik operatsiyalarni yaxshilash kerakligini ta'kidlaydi.

### **Tadqiqot metodoligiyasi**

Tadqiqotda ta'minot zanjirida foydalaniladigan KPI'lar strategik maqsadlarga qanday mos kelishi hamda ularning kompaniyaning umumiyligi samaradorligiga qanchalik hissa qo'shishi ko'rib chiqildi. KPI'lar orqali olingan ma'lumotlar raqamli texnologiyalar va tahlil vositalari yordamida tahlil qilindi. O`zbekiston Prezidentining chiqishlari va iqtisodiy modernizatsiya rejali asosida ta'minot zanjirini yaxshilash masalalari tadqiq qilindi. Shuningdek, O`zbekistonning logistika sektoridagi KPI'larning o'rni hamda bu ko'rsatkichlarning mahalliy va xalqaro talablarga javob berishi o'rganildi.

### **Tahlil va natijalar**

Ushbu bo`limda ta'minot zanjirida samaradorlikni oshirishda KPI'larning o'rni tahlil qilinadi.

#### **1. Xarajatlarni qisqartirish**

Xarajatlarni kamaytirish har bir ta'minot zanjiri uchun asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Ta'minot zanjiridagi yetkazib berish, saqlash va ishlab chiqarish kabi bo`limlarda xarajatlarni nazorat qilish va kamaytirishda KPI'larning o'rni juda ham muhim hisoblanadi. Kompaniya KPI'lar orqali ushbu bo`limlarda transport marshrutlari yoki ombor operatsiyalaridagi samarasizliklarni aniqlashi va xarajatlarni qisqartirishi mumkin bo`ladi.

#### **2. Inventarizatsiyani boshqarish**

Inventarizatsiyani samarali boshqarish kerakli tovarlar, kerakli joyda va kerakli vaqtida mavjud bo`lishini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Inventarizatsiya aylanmasi, zaxiralar va sotuvlar orasidagi farqlar, korxonadagi inventar kunlari kabi KPI'lar inventarizatsiyaning qanchalik samarali boshqarilayotganini aniqlash uchun yordam beradi.

O`zbekistonning chakana savdo va ishlab chiqarish tarmoqlarida ushbu KPI'lardan foydalanish inventarizatsiya darajalarini optimallashtirish va mijoz talabini ortiqcha xarajatlarsiz qondirishga xizmat qiladi.

### **3. O`z vaqtida yetkazib berish va xizmat sifati**

Mijozlarni qoniqtirish ko`pincha mahsulotlarni o`z vaqtida va aniq yetkazib berilishi bilan bog`liq. O`z vaqtida yetkazib berish darjasи, buyurtmani to`g`ri manzilga yetkazish va yaxshi holatda yetkazish darajalari kabi KPI'lar xizmat sifatini baholashga yordam beradi.

O`z vaqtida yetkazib berish darjasи buyurtmalarni va'da qilingan kunda yetkazib berilganlik foizini ko`rsatadi. Buyurtmani to`g`ri bajarilishi xatosiz yetkazilgan buyurtmalar foizini ko`rsatadi. Mukammal buyurtma darjasи esa bir nechta xizmat ko`rsatish mezonlariga qarab o`lchanadi.

### **4. Ta'minot zanjirining moslashuvchanligi**

Talab yoki ta'minot zanjiridagi uzilishlarga tez moslashish, dinamik bozorlarda faoliyat yurituvchi bizneslar uchun juda muhimdir. Yetkazib berish vaqtি, ta'minot zanjiri sikllari va moslashuvchanlik indeksi kabi KPI'lar kompaniyaning o`zgarishlariga qarab qanday javob bera olishini o`lchaydi.

Masalan, qisqa vaqtida yetkazib berish imkoniyati bo`lgan kopmaniya mijoz talabidagi o`zgarishlarga yoki ta'minot zanjiridagi uzilishlarga tez moslasha oladi. Shuningdek, yuqori moslashuvchanlik indeksi kompaniyaning ta'minot zanjiri talab va ta'minot sharoitlaridagi o`zgarishlarni boshqarishga qodirligini ko`rsatadi.

O`zbekistonda ham ta'minot zanjirining moslashuvchanligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kompaniyalar ichki va xalqaro bozor talablariga javob berishga harakat qilmoqdalar. Hukumat tomonidan oshirilayotgan iqtisodiy

diversifikatsiya bilan kompaniyalar yangi bozor imkoniyatlaridan foydalanish uchun ozlarini tezkorligini oshirishga intilmoqda.

### **5. Barqarorlik va atrof-muhitga ta'sir**

So`nggi yillarda ta'minot zanjiridagi barqarorlik muhim masalaga aylandi. Ko`plab kompaniyalar o`zlarini atrof-muhitga qanchalik ta'sir o`tkazayotganini hisobga olishga majbur bo`lishmoqda va plastik chiqindilar, energiya sarfi, turli xil zararli chiqindilarni kamaytirish kabi KPI'lar doimiylikni nazorat qilish va yaxshilash uchun foydalanilyapti.

O`zbekistonda ham hukumat tomonidan biznesdagi va ta'minot zanjiridagi doimiylikni saqlab qolish uchun bir qancha tashabbuslar ishlab chiqilyapti. Kompaniyalar yashil logistika tizimiga o`tishga undalyapti va tabiatga zarar yetkazmaslikka doir KPI'lar bu jarayonga o`z hissasini qo`shyapti.

### **Xulosa va natijalar**

Analizlar shuni ko`rsatyaptiki, KPI'lar ta'minot zanjirini yaxshilashda, biznesdagi jarayonlarni tezlashtirishda va yana bir qancha jihatlarda muhim ro`l hisoblanmoqda. Kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish, inventarizatsiyani boshqarish, xizmat sifatini nazorat qilish, doimiylik va barqarorlik kabi jihatlarga e'tiborini qaratgan holda xalqaro talablarga javob berishi va xalqaro bozorga ham chiqishi mumkin bo`ladi.

KPI'lardan yana ham faolroq foydalanish uchun kompaniyalar quyidagi ishlarni amalga oshirishi tavsiya etiladi:

**1. Texnologiyalarga investitsiya kiritish:** raqamli texnologiyalar; misol uchun: ta'minot zanjirini boshqarish dasturiy ta'minotini joriy qilish KPI ma'lumotlarini to`plash va tahlil qilishda, uni turli xil sohalarda qo'llash va yaxshilashda qo'l kelishi mumkin.

**2. KPI'larni strategik maqsadlar bilan birlashtirish:** KPI'lar to`g`ridan-to`g`ri kompaniyaning umumiy holati bilan bog`liq bo`lishi, ta'minot zanjirini yaxshilashi va uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun asosiy omillardan biri bo`lishi shart.

**3. KPI'arni davomiy ko`rib chiqish va nazoratga olish:** bozor o`zgarishlarini hisobga olgan holda, ma'lum bir vaqt oralig'ida KPI'larni ko`rib

chiqish va tahrirlash, uni mavjud bozor sharoitlariga to`g`ri kelishini nazorat qilib turish juda ham muhim hisoblanadi.

**4. Xodimlarni KPI'lar bilan ishlashga o`rgatish:** kompaniyadagi barcha xodimlar KPI'lar kompaniya va ta'minot zanjiri jarayonlaridagi muhim ko`rsatkich ekanligini tushunishi va doimiy yaxshilanishiga o`z hissalarini qo`shishi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, KPI'lar nafaqat ta'minot zanjiridagi jarayonlarga balki kompaniyani ham raqobatbardosh va doimiy yaxshilanishiga va hattoki, xalqaro bozorlarga chiqishigacha yordam beradi deb ayta olamiz. Ayniqsa, tez sur'atlar bilan o`sayotgan O`zbekiston davlatining iqtisodiy sharoitida.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Kaplan, R.S., & Norton, D.P. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Harvard Business School Press.
2. Christopher, M. (2011). *Logistics and Supply Chain Management: Creating Value-Adding Networks*. Financial Times Pf. ress.
3. Kurbanov, B. (2021). "Improving Logistics in Uzbekistan: The Role of KPIs in Enhancing Supply Chain Efficiency." *Uzbekistan Economic Review*, 12(3), 45-62.
4. Simchi-Levi, D., Kaminsky, P., & Simchi-Levi, E. (2003). *Designing and Managing the Supply Chain: Concepts, Strategies, and Case Studies*. McGraw-Hill.
5. Mentzer, J.T., DeWitt, W., Keebler, J.S., Min, S., Nix, N.W., Smith, C.D., & Zacharia, Z.G. (2001). *Supply Chain Management*. SAGE Publications.
6. Gunasekaran, A., Patel, C., & McGaughey, R.E. (2004). "A framework for supply chain performance measurement." *International Journal of Production Economics*, 87(3), 333-347.